



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'RGANISH MAZMUNI

Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi

Guliston davlat pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

Guliston davlat pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti v.b., p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limda ona tili fanini o'rgatishning nazariy asoslari va mazmuni, ona tilini o'rgatishning vazifalari yoritilgan. Shuningdek, so'z turkumlaridan biri bo'lgan "sifat" so'z turkumini o'rgatishning zarurati, pedagog va metodist olimlarning sifatni o'rgatishga doir fikr-mulohazalari tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida sifatni o'rganishning mavjud holati o'rganilib, 4-sinf "Ona tili" darsligida "sifat" so'z turkumiga doir mavzularning yoritilishi va mashqlarning berilish holati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ona tili, so'z turkumlari, sifat, sifatning ma'no turlari, predmet belgisi, rang-tus bildiruvchi sifatlar, maza-ta'm bildiruvchi sifatlar, hajm bildiruvchi sifatlar, shakl bildiruvchi sifatlar, hid bildiruvchi sifatlar, xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar.

Abstract: This article discusses the theoretical foundations and content of teaching the mother tongue in general secondary education, the tasks of teaching the mother tongue. Also, the need to teach the word group "Qualification", one of the word groups, and the opinions of pedagogical and methodological scientists on teaching the quality are analyzed. The current state of learning the quality in primary school mother tongue lessons is studied, and the coverage of topics related to the word group "Qualification" and the provision of exercises in the 4th grade "Mother Language" textbook are described.

Key words: native language, word classes, adjective, types of meaning of adjective, object marker, adjectives denoting color, adjectives denoting taste, adjectives denoting size, adjectives denoting shape, adjectives denoting smell, adjectives denoting characteristics.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы и содержание преподавания родного языка в общеобразовательной средней школе, задачи преподавания родного языка. Также анализируется необходимость преподавания словосочетания "Квалификация", одной из словосочетаний, и мнения педагогов и методистов о преподавании этого сочетания. Изучается современное состояние обучения качеству на уроках родного языка в начальной школе, описывается охват тем, связанных со словосочетанием "Квалификация", и предоставление упражнений в учебнике "Родной язык" для 4-го класса.

Ключевые слова: родной язык, части речи, прилагательное, типы значений прилагательных, объектный маркер, прилагательные, обозначающие цвет, прилагательные, обозначающие вкус, прилагательные, обозначающие размер, прилагательные, обозначающие форму, прилагательные, обозначающие запах, прилагательные, обозначающие характеристики.

KIRISH

Ona tili – har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy, siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.



O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida: "Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir" ^[1], deyiladi. Demak, o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda olgan bilimlari ta'limning keyingi bosqichlarini muvaffaqiyatli davom ettirishda muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Sifat" tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning "predmet belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl, hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar guruhlanadi. Shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga uning grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi: sifatning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar:

- predmet belgisini bildiradi;
- qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi;
- gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi ^[7].

"Sifat" so'z turkumining leksik va grammatik xususiyatlarini chuqur o'rganish o'quvchilarga yuqori sinflarda uni "ravish" so'z turkumidan farqlashga zamin yaratadi.

Predmetlarning belgi-xususiyati (rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, holati, vazni, hidi, o'rin yoki vaqtga munosabati)ni ifodalaydigan so'zlar turkumi sifat deyiladi. Sifatlar ot yoki fe'lga bog'lanib qanday?, qanaqa?, qaysi?, qachongi? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi: yashil qalam, mitti yulduz, kunbotar tomon, kuzgi tufli, afsonaviy qush, tajang odam, yaxshi o'qimoq, chiroyli yozmoq ^[4]. O'quvchilarning lug'at boyligini boyitishda, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda "sifat" so'z turkumiga doir so'zlarning ma'nosini tushunishlari va o'z o'rnida qo'llashlari muhim ahamiyatga ega.

Olima D.N. Yuldashevaning ta'kidlashicha, "sifat" so'z turkumiga oid dastlabki ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda, shuningdek, 5-sinfda berilganligini inobatga olib, mazkur so'z turkumini o'rganish ana shu egallangan zaruriy bilimlarni o'quvchilar xotirasida tiklash bilan boshlanadi. Berilgan so'z birikmalarini o'qish, qanday?, qanaqa? kabi so'roqlarni qabul qiluvchi so'zlarni aniqlash, shu so'zlarni imkoniyat darajasida ularning ma'nodoshlari bilan almashtirib, so'z birikmalari hosil qilish (masalan, odobli bola – boodob bola, tuzsiz taom – betuz taom), shaxs va narsa, hodisa, tushunchalarning belgi-xususiyati (rang-tusi, maza-ta'mi, xil-xususiyati, hajm-shakli)ni ifodalovchi so'zlar ro'yxatini lug'at asosida tuzish, ular ishtirokida gaplar hosil qilish, muayyan matnni o'qib, shunday so'zlarni aniqlash singari topshiriqlar mazkur so'z turkumi yuzasidan egallangan bilimlarni ular xotirasida tiklashga yordam beradi ^[10].

A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupovalar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligiga ko'ra sifatni tahlil qilish tartibi quyidagicha:

- Ma'no turi.
- Darajasi*: oddiy, qiyosiy, orttirma.
- Tuzilishiga ko'ra turi*: sodda, qo'shma, murakkab, juft, takror.
- Yasama sifatning yasali usuli.
- Qaysi so'z bilan bog'lanishi.
- Gapdagi vazifasi ^[6].

Tilshunos olimlarning sifatni tahlil qilish bosqichlari boshlang'ich sinflarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar 1- va 2-sinfda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so'rog'ini berishga o'rganadilar; 3-sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; 4-sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatning ma'nosiga aniqlik kiritiladi ^[5].

Boshlang'ich sinf darsliklarida "sifat" so'z turkumini bosqichma-bosqich o'rganishga alohida ahamiyat beriladi va mavzular shu maqsadni ko'zda tutgan holda soddadan murakkabga qarab beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisobla-

nadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim va antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi.

Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan olgan bilimlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muhokama va natijalar. Sifat turkumini, umuman, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida asosiy maqsad o'quvchi lug'at zaxirasini boyitish va so'zdan nutq jarayonida amaliy foydalana bilish ko'nikmasini hosil qilish bo'lmog'i kerak. Boshlang'ich sinflarda sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan predmetlarning o'z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi.

4-sinf ona tili darslarida "sifat" so'z turkumini o'rganishda mavzular kengaytiriladi^[3]. Mavzu avvalida berilgan qoidani yod olish talab etiladi.

**Shaxs-narsa belgisini bildirgan so'z sifat deyiladi.
Sifatlar qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi.**

Qoidaning qay darajada o'zlashtirilganligi mashqlarni bajarish jarayonida ayon bo'ladi.

Darslikda berilgan *6-mashq*ning topshirig'i quyidagicha: **Matnni o'qing. So'roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ko'chiring.**

Qor yog'yapti. Daraxtlar oq libosga burkangan. Bolalarning beg'ubor qalbi daryoday to'lib-toshyapti. Ular oppoq qor uchqunlari tomon talpinishyapti.

Qorning bir parchasi qizning oppoq hovuchiga qo'ndi. Qor qizchanning qo'lida tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi. Bir zumda hamma yoq oq choyshabga o'randi.

Shuningdek, darslikda sifatlarning har bir ma'no turi alohida mavzu sifatida o'rganiladi.

51-mashq. Sifatlarni ma'nosiga ko'ra guruhlariga ajratib yozing.

Yoqimli, chiroyli, qip-qizil, baland, jasur, dumaloq, badbo'y, cheksiz, qiyshiq, kichkina, taxir, qora, sariq, qaysar, bepoyon, egri, rostgo'y, mehribon, hidli, saxiy.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar	Hajm bildiruvchi sifatlar	Shakl bildiruvchi sifatlar	Hid bildiruvchi sifatlar	Xil-xususiyta bildiruvchi sifatlar

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarga o'tilganlarni mustahkamlash va takrorlash uchun quyidagicha topshiriqlar taqdim etish mumkin.

O'qituvchilar dars jarayonida foydalanishlari uchun ijodiy topshiriqlar berish orqali mavzuni mustahkamlaydilar. Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida "sifat" so'z turkumini o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi. Sifatlar bolalar nutqini va tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Sifatlar narsa va hodisalarni aniq tasvirlash, ifodalash imkonini beradi. Bu imkoniyatdan foydalanib, ijodiy matn tuzishga o'rgatish o'quvchilarning fikrini aniqlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2020-yil 23-sentabrdagi O'RB-637-son.
2. Abdixadirova, U. D. (2022). The role of digital pedagogy in the development of student oral and written speech in primary school mother tongue lessons.
3. Baynazarova D.D. Ona tili. 4-sinf. III qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. - T.: Novda, 2023. - 61-62-b.
4. Ibroximova O. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishda yangi innovatsion metodlardan foydalanish // Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili. - 2024. - 819-821-b.
5. Matchonov S., Bakiyeva H., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: "Ishonchli hamkor", 2021. - 740 b.



6. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. - T.: Ilm-ziyo, 2013. - 303-b.
7. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2009.
8. Utanbayeva, D. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda badiiy matn asosida tuzilgan mashq va topshiriqlarning ahamiyati. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(15), 20–23.
9. Utanbayeva, D., & Qurbonboyeva, Z. (2025). Matn topshiriqlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturiga tayyorlash. Modern Science and Research, 4(1), 108–113.
10. Yuldasheva D.N. O'zbek tili o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Buxoro, 2021. – 290-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.